

Shodiyev Ilhomjon G'ulom o'g'li

TDIU talabasi,

Abdullayev Abror Bozarboyevich

TDIU "Iqtisodiy tahlil" kafedrasida dotsenti

Annatsiya: Soliqlar, boshqacha qilib aytganda, davlat budjetini to'ldirish uchun shaxsga yoki tashkilotga qo'yilgan mablag'lar hisoblanadi. Soliqlar umumiy maqsadlar uchun yig'iladigan mablag'lar hisoblanadi va davlat tomonidan belgilangan tartibda to'lanadi.

Kalit so'zlar: soliq, soliq turlari, soliq qonuni, mahalliy soliqlar, soliq raqobati.

Soliq o'zi nima? Aholi o'rtasida soliq to'lash tushunchasining nazariy ma'nosini bilmaydigan ko'plar topiladi albatta.

Soliq - davlat yoki mahalliy boshqaruv faoliyatini ta'minlash uchun davlat organlari tomonidan tashkilot va jismoniy shaxslardan yig'ib olinadigan to'lovga aytiladi. Bu qadam davrlardan beri aholining davlatga to'laydigan to'lovi hisoblanadi. Ammo qadmda boshqacha nomlar bilan atalgan masalan o'lpon, juzya, xatto jon solig'i ham bo'lgan.

O'zbekiston Respublikasida Soliq tizimining huquqiy asoslari, uni to'lovchilarning huquqlari hamda majburiyatlari, soliq ishlarini yuritish tartiboti 1997-yil 24 aprelda qabul qilingan va 1998-yil 1 yanvardan amalga kiritilgan O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi bilan belgilanadi. O'zbekiston Respublikasida joriy etilgan umumdavlat Soliqi: yuridik shaxslardan olinadigan daromad (foyda) solig'i; jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i; qo'shilgan qiymat solig'i; aksiz solig'i; yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq; ekologiya solig'i; suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq. Umumdavlat Solig'i har yili qonuniy tartibda belgilanadigan normativlar bo'yicha tegishli byudjetlar o'rtasida taqsimlanadi. Mahalliy Soliq va yig'imlar - molmulk soliq; yer solig'i; reklama solig'i, avtotransport vositalarini sotganlik uchun soliq, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish soligi, savdosotiq huquqi uchun yig'im; obodonchilik ishlari uchun yig'im va boshqa Mahalliy soliq va yig'imlar mahalliy byudjetga o'tkaziladi.

Davlat tomonidan undirilgan Soliq byudjet vositasida qayta taqsimlanib, soliq to'lovchilarga sog'liqni saqlash, maorif, ilm-fanni rivojlantirish, mudofaa, xuquqni muhofaza qilish kabi ijtimoiy zarur davlat xizmatlari orqali bilvosita yo'llar bilan qaytadi. O'zbekistonda soliq nazariyasi va amaliyotiga oid materiallar, shu sohaga doir boshqa masalalar „Soliq to'lovchining jurnali“da (1995-yildan o'zbek va rus tillarida chiqadi) yoritiladi. O'zbekistondagi soliq turlari quydagilardir:

- yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i;
- jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;
- qo'shilgan qiymat solig'i;
- aksiz solig'i;
- yer qo'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar
- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

- mol-mulk solig‘i;
- yer solig‘i;
- benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq.

Aholining ko‘pchilik qismi bu soliq turlari bilan tanish emas. Va ularning asosiy qiymatlari bilan ham xatto qiziqishmagan ham. Kuni kecha jurnalistlar tominidan olib borilgan anonym so‘rovnoma natijasi shuni ko‘rsatadiki : mahalliy aholi barcha soliq turlaridan to‘liq xabardor emas.

Mahalliy soliqlar mahalliy hokimiyatlarning mustaqilligini va ularning javobgarligini oshiradi. Birgalikda ta‘sir fuqarolarga mahalliy hokimiyat organlari tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar miqdori va aralashmasiga hamda ularni moliyalashtirish uchun zarur bo‘lgan soliqlar aralashmasiga ta‘sir o‘tkazish imkonini beradi. Xususan, mas‘uliyat mahalliy davlat xizmatlarini ko‘rsatish xarajatlari soliqlar va foydalanuvchi to‘lovlari orqali ulardan foydalanuvchi fuqarolarga o‘tkazilishini talab qiladi. Bu jarayon mahalliy hokimiyat organlari soliq avtonomiyasiga ega bo‘lganda, ya‘ni o‘z soliqlariga ega bo‘lganda va soliq stavkalarini moliyalashtirish ehtiyojlaridan kelib chiqib belgilash imkoniga ega bo‘lganda osonlashadi.

Butun dunyoda so‘nggi o‘n yilliklarda mahalliy hokimiyatlarni moliyalashtirish tobora qiyinlashdi. Ushbu hodisaning yaxshi sabablari bor. Avvalo, mahalliy boshqaruv organlarining daromadlarga bo‘lgan ehtiyoji markaziy hukumatlarga qaraganda tezroq o‘sdi. Urbanizatsiya tarqalishi va shahar xizmatlarini ko‘rsatish bilan bog‘liq xarajatlarning tez o‘shishini esga olish kerak. Ikkinchidan, transport va kommunikatsiyalardagi texnik taraqqiyot odamlarning ham, tovarlarning ham harakatchanligini doimiy ravishda oshirdi. Bu yuqori harakatchanlik o‘z navbatida mahalliy soliqlarga ikkita asosiy ta‘sir ko‘rsatadi. Birinchidan, bu “soliq eksporti” ga imkon beradi, ya‘ni mahalliy hukumatga soliq yukini o‘z fuqarolaridan boshqa mahalliy yurisdiksiyalarga o‘tkazish imkonini beradi. Bu, masalan, mahalliy hokimiyatga o‘z yurisdiksiyasidan tashqarida sotiladigan tabiiy resursga soliq solishga ruxsat berilganda yoki shahar hokimiyati faqat boshqa yurisdiksiyalardan kelayotgan avtomashinalarga to‘xtash joyi uchun to‘lov joriy qilganda sodir bo‘ladi. Soliq eksporti nafaqat adolatsiz, balki samarasizdir. Mahalliy hukumatlar soliq yukini boshqa hududlarga eksport qilish mumkin bo‘lganda, soliq tushumlarini haddan tashqari oshirishga moyildirlar. Ikkinchi ta‘sir “soliq raqobati” ni anglatadi. Fuqarolar mahalliy soliqlarning yuqori bo‘lishiga munosabat bildirishlari mumkin bo‘lgan soliqlar pastroq bo‘lgan boshqa yurisdiksiyaga ko‘chib o‘tishlari mumkin. O‘z navbatida, mahalliy hokimiyat organlari boshqa yurisdiksiyalardagi shaxslar va firmalarni jalb qilish uchun soliqlarni kamaytirishdan foydalanishlari mumkin. Soliq raqobati har doim ham yomon emas. Bu, albatta, soliq to‘lovchilar nuqtai nazaridan yomon emas, lekin bu mahalliy hokimiyatlarning soliq vositalari bo‘yicha tanlovlarini cheklaydi. Soliq eksporti va soliq raqobatining birgalikdagi ta‘siri mahalliy hokimiyat organlari tomonidan juda ko‘p muammolar va nizolar yaratmasdan boshqarilishi mumkin bo‘lgan mahalliy soliqlar sonini kamaytirish edi. Mahalliy hokimiyat organlarini moliyalashtirish muammosi iqtisodiy o‘shishning fazoviy notekisligi ortib borayotgani bilan murakkablashdi, bu esa mahalliy yurisdiksiyalar o‘rtasida ularning soliq solinadigan bazalari va shu tariqa ularning xarajatlarni moliyalashtirish imkoniyatlari bo‘yicha farqlarni kuchaytirdi. Bu farqlar juda katta mahalliy soliq avtonomiyasiga qarshi dalil sifatida ishlatilgan; ya‘ni mahalliy soliqlar gorizontal tengsizlikni keltirib chiqarishi mumkin. Buning sababi shundaki, boy hududlar kambag‘al hududlarga qaraganda yuqori darajadagi mahalliy xizmatlarni moliyalashtirishga qodir, hatto ularning aholisiga kamroq soliq yukini yuklash orqali. Bundan tashqari, ba‘zi mamlakatlarda soliq vositalarini markazlashtirish barqarorlashtirish va iqtisodiy o‘shish siyosati kabi ko‘p nuqtai nazardan foydali deb hisoblanadi. Mahalliy soliqlar esa shaharning yoki viloyatning hududiga

tegishli bo'lgan soliqlargadir. Bu soliqlar shahar yoki viloyat hukumati tomonidan qo'yiladi va o'zida jamoatning faoliyatini ta'minlash, infrastrukturani rivojlantirish va boshqa mahalliy masalalarni hal qilish uchun ishlatiladi. Mahalliy soliqlarning misollariga qaramay, qishloq xo'jaligi soliqi, transport soliqi va boshqalar kiradi.

Jahonda soliq yig'ish turlari qanday? Va ularda qonunlarning ahamiyati. BIF ma'lumotnoma tayyorlashda ko'plab ko'rsatkichlarni – biznes yuritish uchun yaratilgan sharoitlardan tortib amaldorlarning pora olishigacha hisobga oladi. Ko'rsatkichlardan biri soliq miqdori bo'lib, u qanchalik yuqori bo'lsa, raqobatbardoshlik shuncha past bo'ladi. Bu ko'rsatkichni o'lchash uchun “umumiy soliq stavkasi” dan foydalaniladi. Bu beshta turdagi soliqlarning umumiy yig'indisi bo'lib, ular quyidagilardir: daromad yoki korporativ daromad solig'i, ijtimoiy yig'imlar va ish beruvchi tomonidan to'lanadigan mehnatga to'lov jamg'armasi solig'i, mol-mulk solig'i, aylanma mablag' solig'i va boshqa mayda soliqlar. Bunga ishchi kuchi yollagani uchun to'lanadigan soliq kiradi. Quyidagi mamlakatlar dunyodagi eng ko'p miqdorda soliq olinadigan mamlakatlar hisoblanadi.

19. Ispaniya: 58,2 foiz Ispaniya bosh vaziri Mariano RaxoyRo'yxatda 19-o'rinda bo'lishiga qaramasdan, Ispaniya Yevropa davlatlari ichida atigi uchinchi o'rinda.
18. Hindiston: 61,7 foiz Hindiston bosh vaziri Narendra Modi Xalqaro yoga kunida fuqarolar bilan yoga mashg'ulotlarida Moliya vaziri Arun Jyeytli korporativ soliqlar darajasini 5 foizga tushirmoqchi.
17. Tunis: 62,4 foiz Fuqaro qo'llarida Tunis bayrog'ini ko'targancha 2011 yilgi inqilobning to'rt yilligini nishonlamoqda Tunis umumiy soliq stavkasi bo'yicha Shimoliy Afrikada ikkinchi o'rinda turadi.
16. Benin: 63,3 foiz Benin prezidenti Boni Tomas Yai o'tish hukumatining qaytishiga bag'ishlangan marosimda ishtirok etmoqda Jahon bankining ma'lumotiga qaraganda, mamlakatda korporativ daromad solig'i atigi 15,9 foizni tashkil etadi, lekin qolgan soliqlarning miqdori biznesga ortiqcha bosim yuklaydi.
15. Gambia: 63,3 foiz Gambia va AQSh rahbarlari oilalari Afrika mamlakatlari yetakchilari sammiti vaqtida Gambiyada tabiiy boyliklar yo'q, u dunyoning eng qashshoq mamlakatlaridan biri. Bu yerda soliq daromaddan emas, mablag' aylanishidan olinadi.
14. Chad: 63,5 foiz Chad prezidenti Idris Debi Keniata xalqaro anjumanlar markazida terrorchilikka qarshi kurash bo'yicha sammitda Afrika ittifoqining tinchlik va xavfsizlik kengashiga murojaat qilmoqda Gambia singari Chad ham qishloq xo'jaligi evaziga yashaydi va judayam qashshoq mamlakat. Soliqlar mablag' aylanmasining 1,5 foiz ini yoki daromadning 40 foizini tashkil etadi. Argentinada umumiy soliq stavkasi korporativ daromadning 100 foizidan oshadi. Birgina mablag' aylanmasidan olinadigan soliq 90 foiz pulni “yeb yuboradi”, bundan tashqari ish haqi va moliyaviy o'tkazmalar uchun ham soliq olinadi. Bularning hammasi sitatestik ma'lumotlar edi. Bizning bobokalonimiz sohibqironning soliq siyosati bugun ham nafaqat yurtimiz, balki dunyo moliya amaliyotida ham keng qo'llaniladi.

Tarixdan Ma'lumki, Yurtimizdan Yetishib Chiqqan Olimlar Dunyoda Matematika, Astro-Nomiya, Fiqh, Geografiya Kabi Fanlar Rivoji Bilan Birga Soliq Ma'muriyatchiligi Yuzaga Kelishi Hamda Bu Boradagi Munosabatlarni Tartibga Solish Tizimining Yaratilishiga Ham Katta Hissa Qo'shgan.

Xiv Asrda Amir Temur Saltanat Tepasiga Kelgach, Soliq Tizimida Ham Keng Islohotlar O'tkazildi. Ushbu Davrda Aholidan Yer (Xi- Roj, Mol), Jon Boshi (Juzya), Miniladigan Hayvonlar Yetkazib Berish (Uloq), Begor Maj Buriyatlarini Hamda Favquloddagi (Avario- Zot) Kabi Soliqlar Undirilgan. Binobarin, Sohibqiron Moliya Va Soliq Qonunlarini Ishlab Chiqishda O'zidan Oldingi Hukmdor- Lar, Zamondoshlari Tajribasi Hamda Boshqa Mamlakatlar Soliq Tizimining Ijobiy Ji Hatlaridan Keng Foydalangan. Bu, O'z Navbati Da, Dunyoda Nafaqat Soliqqa Tortish Va Soliq Ma'muriyatchiligi Amaliyoti, Balki Ularning Nazariyasi Rivojiga Ham Katta Xizmat Qilgan.

Tahlillar Amir Temur Soliqqa Tortishda Hukmdorlar Amal Qilishi Lozim Bo'lgan Tamo-Yillarni O'z Tuzuklarida Oqilona Bayon Etgan Va Unga O'zi Ham Qat'iy Amal Qilgan.

Temur davlatining soliq tizimi uning buyuk imperiyasi xarajatlarini uzluksiz ta'min- lab kelgan, xazinadan ilm, fan, madaniyat va obodonlashtirish ishlari uchun ham zarur mablag'lar ajratilishiga xizmat qilgan. Saltanatda boshqa mamlakatlardan farqli ravishda soliqlarni hisoblab chiqish qoidalari ham joriy etilgan. Masalan, agar dehqon doimiy ariqlar, suv quvurlari yoki oqimlar bilan sug'oriladigan yerlarga ega bo'lsa va ana shu suv uzluksiz oqib tursagi- na, mazkur yerlardan olinadigan daromad uch qismga taqsimlangan. simlangan. Ya'ni bunda uchdan ikki qismi yer egasiga qolgan, bir qismi esa soliq sifatida olingan. Agar yer faqat yomg'ir suvi bilan sug'orilsa, ikki qismga taqsimlangan, ulardan hosilning uchdan bir qismi yoki cho- ragi soliq sifatida olingan.

Mazkur tartib hozirgi kunda dunyo moliya amaliyotida qo'llanib kelayotgan yerlarni ball boniteti bo'yicha soliqqa tortishning naza- riy asosi hisoblanadi. Demak, ayni paytda soliq qonunchiligida qo'llanilayotgan yer so- lig'i ball bonitetlari aynan Amir Temur hukmronligi davridan boshlangan va soliq- lar stavkasini yerning unumdorlik daraja- sig'a qarab tabaqalashtirish siyosati joriy etilgan. O'sha davrda yangi yer o'zlashtirish ham davlat tomonidan rag'batlantirilgan. Bo'z yerga ishlov bergan va uni sug'organ, unga ko'chat ekkan yoki qarovsiz yerlarni o'zlashtirgan dehqon birinchi yili soliqdan ozod qilingan, ikkinchi yili o'zi qancha xohlasa, shuncha soliq to'lash huquqi berilgan. Saltanatda turli adolatsizlik va zo'ravonliklarning oldini olish maqsadida davlat boshqaruv tizimida soliq yig'ish muddatlari ham belgilab qo'yilgan. Masalan, g'alla hosilini yig'ishdan oldin o'lpon yig'ish taqiqlangan. O'lponlarni uch muddatda to'lash belgilangan. Soliq yig'uvchi agar ehtiyoj tug'ilsa, uni yig'ishda so'z va obro'sidan foydalanib harakat qilishi belgilangan bo'lib, zo'ravonlikni qo'llash taqiqlangan.

Hozirgi kundagi mahalliy soliqlar esa. Mahalliy soliq va yig'imlar - davlat hokimiyatining mahalliy organlari va idoralari daromadiga o'tkaziladigan soliq va yig'imlar.

O'zbekiston Respublikasida Mahalliy soliq va yig'imlar va yilga mol-mulk solig'i; yer solig'i; reklama solig'i; avtotransport vositalarini olib sotganlik uchun soliq; ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i; savdo-sotiq qilish huquqi uchun yig'im, shu jumladan, ayrim turlardagi tovarlarni sotish huquqini beruvchi litsenziya yig'imlari; yuridik shaxslarni, shuningdek tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ulla-nuvchi jismoniy shaxslarni ro'yxatga olganlik uchun yig'im, avtotransport to'xtash joyidan foydalanganlik uchun yig'im; obodonchilik uchun yig'im va boshqa kiradi.

Mahalliy soliq va yig'imlar va y. mahalliy byudjetga o'tkaziladi, ularning miqdori, stavkalari, undirish tartibi, soliqdan imtiyozlar berish Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi hamda viloyatlar va Toshkent shahri xalq deputatlari kengashlari tomonidan, amaldagi qonunlarga muvofiq belgilanadi. Mol-mulk va yer solig'i O'zR qonun hujjatlari bilan joriy etiladi va respublikaning butun hududida undiriladi. Bu soliqlarning stavkalari O'zR Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Mahalliy soliq va yig'imlar va yilga oid huquqiy munosabatlar O'zR ning Soliq kodeksi (1997-yildan 24-aprel) bilan tartibga solinadi.

3-moddaga ko'ra: Soliq solish va mahalliy yig'imlarni undirish subyektlari O'zbekiston Respublikasi hududidagi fuqarolar, mulk shaklidan qat'i nazar korxonlar va tashkilotlar, shuningdek fuqaroligi bo'lmagan shaxslar soliq solish va yig'imlarni undirish subyektlari hisoblanadi. Bundan tashqari yana boshqa qonunlarimizda ham soliqning aholi va davlat o'rtasidagi ahamyatlari keltirib o'tilgan.

Xulosa: Ma'lumki soliqlar budjetning daromad qismiga tushadigan tushumlarning asosiy qismini ta'minlaydi. Respublikamizda olib borilayotgan soliq siyosati xo'jalik yurituvchi subyektlar zimmasidagi soliq yukini yanada kamaytirish, ish lab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta jihoz lashni rag'batlantirish, fuqarolarning daromadlarini oshirish, soliq ma'muriyatchiligini soddalashtirish va takomillashtirishga qaratilmoqda. Yurtimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka yaratilayotgan keng imkoniyatlar tufayli ularning faoliyat turi va ko'lami tobora ortib, aholi bandligini ta'minlovchi muhim sohaga aylanmoqda.

Foydalanilgan manbalar:

1. [https://www.elibrary.imf.org/configurable/content/book\\$002f9781557755117\\$002fch012.xml?t:ac=book%24002f9781557755117%24002fch012.xml](https://www.elibrary.imf.org/configurable/content/book$002f9781557755117$002fch012.xml?t:ac=book%24002f9781557755117%24002fch012.xml)
2. <https://m.kun.uz/news/2015/11/21/eng-kop-soliq-tolanadigan-davlatlar?q=%2Fuz%2Fnews%2F2015%2F11%2F21%2Feng-kop-soliq-tolanadigan-davlatlar>
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Mahalliy_soliq_va_yig%CA%BBimlar
4. <https://lex.uz/acts/-98065?ONDATE=20.11.1994%2000>